

Alimov Sardor Komil o'g'li,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
bo'lim boshlig'i, falsafa fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)
e-mail: sardoralimov2507@mail.ru



AYOLLAR MIGRATSIYASINING OILA DEFORMATSIYASIGA TA'SIRI: FALSAFIY- AXLOQIY TAHLIL

Annotatsiya. Mazkur maqolada ayollar migratsiyasi fenomenining oila institutiga ta'siri, migrant oilalarning axloqiy muammolari, xalqaro miqyosda migrant ayollarni qo'llab-quvvatlash zarurati falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, migrant ayollarning huquqlarini himoya qilish xalqaro munosabatlardagi asosiy muammolardan biri ekanligi, ularning huquqlari BMTning ko'plab hujjatlari, konvensiya va deklaratsiyalarida e'tirof etilayotganiga e'tibor qaratilgan.

Аннотация. В данной статье философски анализируется влияние феномена женской миграции на институт семьи, нравственные проблемы семей мигрантов, необходимость поддержки женщин-мигрантов на международном уровне. В частности, обращено внимание на то, что защита прав женщин-мигрантов является одной из основных проблем в международных отношениях, и что их права признаны во многих документах, конвенциях и декларациях ООН.

Abstract. This article philosophically analyzes the effect of the phenomenon of women's migration on the institution of the family, the moral problems of migrant families, and the need to support migrant women at the international level. In particular, attention is paid to the fact that the protection of the rights of migrant women is one of the main problems in international relations, and that their rights are recognized in many UN documents, conventions and declarations.

Tayanch so'zlar: migratsiya, ayollar migratsiyasi, oila, migrant oilalar, BMT, konvensiya, deklaratsiya, oila deformatsiyasi, axloq.

Ключевые слова: миграция, женская миграция, семья, семьи мигрантов, ООН, конвенция, декларация, деформация семьи, мораль.

Keywords: migration, women's migration, family, migrant families, UN, convention, declaration, family deformation, morality.

Holatlarning barchasi oila institutining an'anaviy shakli o'zgarishiga, global migratsiya ta'sirida deformatsiyaga uchrashiga sabab bo'ladi. An'anaviy oilada oila a'zolarining bir uyda yashashlari, iqtisodiy, ma'naviy, psixologik jihatdan bir-birilarini qo'llab-quvvatlashlari odatiy hol bo'lgan bo'lsa, migratsiya tufayli oila a'zolarining turli mamlakatlarda yashashlari, uzoq muddatda, turli bayram yoki oilaviy marosimlardagina uchrashishlari, faqatgina virtual muloqot vositalari orqaligina muloqotda bo'lishlari odatiy holga aylanib bormoqda.

Kirish. Migratsiya jarayoni oila va unda istiqomat qiluvchi ayollarning turmush tarziga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Migratsiyaning barcha shakllari, xususan, mehnat migratsiyasi, ta'lim migratsiyasi, majburiy migratsiya, oilalarni birlashtirish uchun o'z yashash joyini o'zgartirish va boshqalar oilalar, ayollar, ularning turmush tarzi, huquqlari transformatsiyasiga olib kelishi mumkin. Jumladan, ayollarning mehnat migranti sifatida o'z yashash joylarini o'zgartirishlari oila ijtimoiy hayotining barcha jabhalariga ta'sir qiluvchi fenomen sifatida an'anaviy oila institutiga ham ta'sir ko'rsatib, ma'lum darajada uning deformatsiyasiga, shakli va mazmuni o'zgarishiga olib keladi. Jumladan, ba'zida ayollar "migrant oilalar" tarkibida bo'lganlarida immigrant mamlakatlardagi cheklovchi migratsion siyosat tufayli uzoq yillar davomida turmush o'rtoqlaridan, farzandlaridan, qarindoshlaridan uzoqda yashashga majbur bo'lishadi. Natijada esa oiladagi vazifalar taqsimoti, uyda qolgan qarindoshlarga g'amxo'rlik qilish, ularni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda oilaviy nizolar yuzaga kelishi mumkin. Yoki mazkur holat xorijga ketishga majbur bo'lgan migrant onalarni turli nolegal usullarni qo'llashlariga, natijada esa o'zlari va farzandlarini xavf ostiga qo'yishlariga olib keladi.

Asosiy qism. Migratsiya jarayoni hamda mazkur jarayonni tartibga solish bilan bog'liq mamlakatlarning siyosati migrant ayollar va ularning oilalari uchun ba'zida xavfli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, ba'zi holatlarda ayollarning jamiyatdagi yoki oiladagi ijtimoiy, huquqiy o'rnini yaxshilash bilan bog'liq holatga immigrant mamlakatda mavjud, migrant ayolning mamlakatda bo'lish huquqi uning shu mamlakat fuqarosi yoki rezidenti bo'lgan turmush o'rtoqi statusiga bog'liq ekanligi belgilab qo'yilgan tartib yoki haq to'lanadigan ishga kirish bilan bog'liq cheklovlar salbiy ta'sir etadi.


Mazkur holatlarning barchasi oila institutining an'anaviy shakli o'zgarishiga, global migratsiya ta'sirida deformatsiyaga uchrashiga sabab bo'ladi. An'anaviy oilada oila a'zolarining bir uyda yashashlari, iqtisodiy, ma'naviy, psixologik jihatdan bir-birilarini qo'llab-quvvatlashlari odatiy hol bo'lgan bo'lsa, migratsiya tufayli oila a'zolarining turli mamlakatlarda yashashlari, uzoq muddatda, turli bayram yoki oilaviy marosimlardagina uchrashishlari, faqatgina virtual muloqot vositalari orqaligina muloqotda bo'lishlari odatiy holga aylanib bormoqda. Bu esa ilmiy doiralarda "migrant oila", "migrant oilalarni birlashtirish" kabi tushunchalar vujudga kelishiga ham olib keladi. Shu o'rinda mazkur tushunchalarga izoh berib o'tsak:

Migrant oila bu umumiy tushuncha bo'lib, sabablari yoki shaklidan qat'i nazar oila a'zolarining kelib chiqish mamlakatidan boshqa mamlakatga ketishi bilan bog'liq har qanday holatni ifodalaydi. **Oilalarni**

birlashtirish esa majburiy yoki ixtiyoriy migratsiya natijasida ajralgan oila a'zolarining kelib chiqish mamlakatidan (donor) boshqa mamlakatda (retsipiient) birlashish jarayonini ifodalaydi¹.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ayollar migratsiya jarayonining muhim a'zolari bo'lib, jami migrantlarning deyarli yarmini tashkil etishgan. Hozirda migrantlarning 52 foizi erkaklar, 48 foizi esa ayollar hisoblanadi², ayollar o'z oilalari bilan yoki o'zlari mustaqil yashash joylarini o'zgartirishlari mumkin. Umuman olganda, turli yillarda dunyoning turli mintaqalarida ayol migrantlarning ulushi qanday o'zgarib borganini quyidagi rasm orqali batafsil bilib olish mumkin:

**MIGRANT AYOLLARNING UMUMIY
MIGRANTLAR SONIDAGI ULUSHI
(MINTAQALAR BO'YICHA, 1990-2017-YILLARDA)**



Manba: UN DESA – BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha departamenti. "Xalqaro migrantlar to'liqini: 2017-yilgi hisobot".
https://www.un.org/en/development/desa/population/migration/data/estimates2/docs/MigrationStockDocumentation_2017.pdf

1-rasm. Migrant ayollarning umumiy migrantlar sonidagi ulushi

¹ IOM (International Organization for Migration). 2011. Glossary on Migration. [2nd Ed]. Geneva: IOM.

² World Migration Report 2020. (https://publications.iom.int/system/files/pdf/final-wmr_2020-ru.pdf). International Organization for Migration. p. 22.

Ayollar migratsiya jarayonining muhim a'zolari bo'lib, jami migrantlarning deyarli yarmini tashkil etishgan. Hozirda migrantlarning 52 foizi erkaklar, 48 foizi esa ayollar hisoblanadi, ayollar o'z oilalari bilan yoki o'zlari mustaqil yashash joylarini o'zgartirishlari mumkin.

Odatda, ayollar migratsiyasining negativ motivlari orasida iqtisodiy omillar, ko'proq maosh yoki turmushdagi qiyinchiliklar kabi faktorlar asosiy rol o'ynaydi. Ba'zi holatlarda esa ayollar migratsiyasi jarayoniga oilaviy munosabatlarning an'anaviy tizimida mavjud muammolardan qochish vositasi sifatida ham qarash mumkin.

Ayollar migratsiyasi yoki oilalar migratsiyasi haqida gapirganda, mazkur migratsiya jarayonlarining motivlariga to'xtalib o'tish lozim. Ayollar migratsiyasi ikki tipdagi motivlar asosida amalga oshirilishi mumkin: pozitiv motivlar va negativ. Pozitiv motivlarga ta'lim olish, ish topish, turmushga chiqish yoki turmush o'rtog'i bilan birga yashash kabi motivlarni ko'rsatishimiz mumkin. Turli siyosiy va harbiy mojarolardan qochish, qashshoqlik tufayli tirikchilik vositalarining yetishmasligi, iqlim o'zgarishi falokatlaridan, tabiiy ofatlardan, gender tengsizlikning og'ir shakllari, jumladan, zo'ravonlik, majburiy nikohdan qochish kabi omillar negativ mazmundagi motivlarni tashkil etadi³.

Odatda, ayollar migratsiyasining negativ motivlari orasida iqtisodiy omillar, ko'proq maosh yoki turmushdagi qiyinchiliklar kabi faktorlar asosiy rol o'ynaydi. Ba'zi holatlarda esa ayollar migratsiyasi jarayoniga oilaviy munosabatlarning an'anaviy tizimida mavjud muammolardan qochish vositasi sifatida ham qarash mumkin. Masalan, migratsiya jarayoni ba'zi mamlakatlarda yashovchi ayollar uchun majburiy nikohdan qochish vositasi sifatida rol o'ynaydi. Xususan, Qirg'izistonda haligacha "kelin o'g'irlash" odati mavjud bo'lib, ba'zida ayollar mana shu "an'ana" qurboni bo'lmaslik, majburiy va erta turmush qurish, gender zo'ravonlikdan qochish uchun mehnat migrantiga aylanishni ma'qul ko'rishadi⁴. Mehnat migratsiyasi Markaziy Osiyodagi ba'zi mamlakatlar uchun ortiqcha ishchi kuchini eksport qilish va shu orqali pul o'tkazmalari oqimidan foyda ko'rish orqali ishsizlikni kamaytirishga yordam bergan bo'lsa-da, ayollar migratsiyasi ko'plab uy xo'jaliklari uchun ma'naviy, ijtimoiy, psixologik, akseologik jihatdan muammolar keltirib chiqaradi hamda oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit buzilishiga, oilaviy ajrimlar soni oshishiga olib keladi⁵.

Ba'zi holatlarda migrant ayollarning xorijga ishlash maqsadida ketishiga asosiy sabablardan biri oilani ma'lum darajada ijtimoiy himoya qilish zaruriyatidir. Migrantlar, xususan, migrant ayollarning ishlab

³ Прогресс женщин мира в 2019–2020 годах. Семьи в меняющемся мире. ООН-женщины. США, Нью-Йорк, 2019, ст. 204. <https://www.unwomen.org/sites/default/files/Headquarters/Attachments/Sections/Library/Publications/2019/Progress-of-the-worlds-women-2019-2020-ru.pdf>

⁴ Hofmann, E. and G. Chi. Perspectives: Bride kidnapping haunts rural Kyrgyzstan, causing young women to flee. Eurasianet, 2021, 8 June. Available at <https://eurasianet.org/perspectives-bride-kidnapping-haunts-rural-kyrgyzstancausing-young-women-to-flee>.

⁵ Lemon, E. Dependent on remittances, Tajikistan's long-term prospects for economic growth and poverty reduction remain dim. Migration Policy Institute, 2019 14 November. Available at www.migrationpolicy.org/article/dependent-remittances-tajikistan-prospects-dim-economic-growth

topgan pullari oila a'zolarining salomatligini tiklashga yo'naltirilishi ham mumkin.

Migrant ayollar va migrant oilalarning huquqlarini himoya qilish bugungi kunda xalqaro munosabatlardagi eng asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Migrant ayollarning ijtimoiy muhofazasi masalasi ko'plab xalqaro huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinib kelinmoqda. Migrantlar va qochoqlarning huquqlari umumiy inson huquqlarining tarkibiy qismi sifatida BMT va uning tarkibiy tuzilmalarining ko'plab asosiy hujjatlari, konvensiya va deklaratsiyalarida e'tirof etib kelinadi. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil), Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo'yicha xalqaro Pakt (1966-yil), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha xalqaro Pakt (1966-yil), Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya (1989-yil) shular sirasiga kiradi. O'tgan 70 yildan ortiq vaqt davomida migrantlarning huquqlari ularning oilaviy hayoti va gender tengligi tamoyillari asosida takomillashtirib borildi. BMT tarkibiy qismi hisoblanuvchi Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)ning 1949-yilgi 97-sonli Mehnat migrantlari to'g'risidagi Konvensiya va 1954-yilgi Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning maqomi to'g'risidagi Konvensiya kabi bir qator konvensiyalarida mehnat muhojirlari, xususan, ayollarning ijtimoiy nafaqa olishlari belgilab qo'yilgan.

1990-yilda qabul qilingan "Barcha mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Konvensiyada⁶ ham davlatning migrant oila a'zolari uchun teng ijtimoiy ta'minotdan foydalanish huquqi (27-modda), sog'liqni saqlash (28-modda), ta'lim (30-modda) va madaniy hayotda ishtirok etish (31-modda) huquqlari belgilab qo'yilgan.

Ayollarga qarshi kamsitishlarga barham berish bo'yicha qo'mita (CEDAW)ning 2009-yildagi 26-sonli umumiy tavsiyasiga ko'ra, migrant ayollar tegishli immigratsion maqomga ega bo'lmasa ham, immigrant davlatlar ularning asosiy tabiiy huquqlarini himoya qilishlari lozim, jumladan, ayollar uchun barcha holatlarda (homiladorlik va onalik holatida ham) sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatilishi lozim⁷.

Ayollar migratsiyaning yana bir jihati shundaki, u ko'p holatlarda oilalarni birlashtirish dasturida ham amalga oshirilishi mumkin. Odatda, ayollarning o'z yashash joyini o'zgartirish qarori faqatgina o'ziga tegishli bo'lmaydi. Balki bu qarorning qabul qilinishida butun oila a'zolarining

1990-yilda qabul qilingan "Barcha mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Konvensiyada ham davlatning migrant oila a'zolari uchun teng ijtimoiy ta'minotdan foydalanish huquqi (27-modda), sog'liqni saqlash (28-modda), ta'lim (30-modda) va madaniy hayotda ishtirok etish (31-modda) huquqlari belgilab qo'yilgan.

⁶ UN General Assembly 1990, International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of Their Families. A/RES/45/158. United Nations Treaty Series Vol. 2220. p. 3.

⁷ UN CEDAW 2008, General Recommendation No. 26 on Women Migrant Workers. CEDAW/C/2009/WP.1/R. p. 26(l).

Ba'zi mamlakatlar oila sifatida er va xotin hamda ularning farzandlarini tushunishsa, ba'zi jamiyatlarda oila tarkibiga bobo va buvi, xola va tog'a, amma va amaki, nevara-chevara va boshqa darajadagi qarindoshlarni kiritishadi. Shuning uchun ham mamlakatlarning oila birlashuvi borasida yakdil qaror mavjud emas.

roli bo'lishi mumkin. Oilalarni birlashtirish dasturlari zamonaviy migratsiya jarayonlarida oila institutini saqlab qolish, farzandlarning to'liq oilada voyaga yetishlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, o'z navbatida, mazkur dasturlar turli mamlakatlarda turlicha bo'lib, davlatlarning immigratsion siyosatidan kelib chiqadi. Asosiy muammolardan biri bu oila tushunchasining turli mamlakatlarda turlicha talqin etilishi deb hisoblash mumkin. Ba'zi mamlakatlar oila sifatida er va xotin hamda ularning farzandlarini tushunishsa, ba'zi jamiyatlarda oila tarkibiga bobo va buvi, xola va tog'a, amma va amaki, nevara-chevara va boshqa darajadagi qarindoshlarni kiritishadi. Shuning uchun ham mamlakatlarning oila birlashuvi borasida yakdil qaror mavjud emas.

Migrant oilalarni birlashtirish borasidagi mamlakatlarning qiyosiy ma'lumotlarini Migrantlar integratsiyasi siyosati indeksi (MIPEX) orqali ham olishimiz mumkin. Mazkur indeksga faqatgina 45 ta davlat ma'lumotlari kiritilgan bo'lsa-da⁸, migrant oilalar uchun mavjud migratsion siyosatning qanchalik qulay ekanligi bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, quyidagi jadvalda 45 ta mamlakatdagi oilalarni birlashtirish dasturlari doirasida qaysi oila a'zolarining kirishi mumkinligi taqdim etilgan:

1-jadval

Mamlakatlar bo'yicha oilalarni birlashtirish dasturlarining qamrov darajasi (2014-yil)⁹

№	Davlat nomi	Oilalarni birlashtirish dasturlari qamrab oladigan oila aʼzolari			
		Turmush oʻrtoq	Voyaga yetmagan farzandlar	Qaramo- gʻidagi ota-onalar/ bobo- buvilar	Qaramo- gʻidagi voyaga yetgan farzandlar
Avstraliya va Yangi Zelandiya					
	Yangi Zelandiya				
	Avstraliya				
Sharqiy Osiyo					
	Yaponiya				
	Janubiy Koreya				
Sharqiy Yevropa					
	Bolgariya				
	Chexiya				

⁸ UNHCR (UN Refugee Agency). Global Trends: Forced Displacement in 2017. Geneva: UNHCR.

⁹ CIDOB (Barcelona Centre for International Affairs) and the MPG (Migration Policy Group). 2015. "Migrant Integration Policy Index (MIPEX)." – URL: <http://www.mipex.eu/>. (Accessed 26 March 2019).

	Vengriya				
	Moldova				
	Polsha				
	Ruminiya				
	Rossiya				
	Slovakiya				
Shimoliy Yevropa					
	Daniya				
	Estoniya				
	Finlyandiya				
	Irlandiya				
	Islandiya				
	Litva				
	Latviya				
	Norvegiya				
	Shvetsiya				
	Buyuk Britaniya				
Janubiy Yevropa					
	Albaniya				
	Bosniya va Gersegovina				
	Ispaniya				
	Gretsiya				
	Xorvatiya				
	Italiya				
	Chernogoriya				
	Shimoliy Makedoniya				
	Malta				
	Portugaliya				
	Serbiya				
	Sloveniya				
G'arbiy Yevropa					
	Avstriya				
	Belgiya				
	Shveysariya				
	Germaniya				
	Fransiya				
	Lyuksemburg				
	Niderlandiya				
Shimoliy Amerika					
	Kanada				
	AQSh				
G'arbiy Osiyo					
	Turkiya				
	Kipr				



- To'liq qamrab olinadi
- Ba'zan qamrab olinadi
- Umuman qamrab olinmaydi

***Bugungi kunda
ayol migrantlar
sonining ortishi
“omon qolishning
feminizatsiyasi”
fenomeni bilan
bog‘liq. Ya’ni
bugungi kunda
oilalar, jamoalar
yoki davlatlar
ayollarning
iqtisodiy faolligi,
ishlab chiqarish
jarayonidagi
ishtiroki, jumladan,
mehnat migranti
sifatida chet elga
chiqib, daromad
keltirishiga
ko‘proq bog‘liq
bo‘lib bormoqda.
Natijada bu
holat ichki va
tashqi migratsiya
jarayonlarida
ayollar ulushining
ortishiga olib
keladi.***

Mazkur jadvalga ko‘ra, oilaviy birlashish dasturlari doirasida eng keng qamrovga ega, eng oson tartibda tegishli maqomni oluvchi qarindoshlar voyaga yetmagan farzandlar (jumladan, asrab olingan bolalar ham) hisoblanadi. Barcha mamlakatlarning to‘rtinchi qismi (45 davlatdan 34 tasi) mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha maksimal natija ko‘rsatgan. Turmush o‘rtoqlar uchun oilaviy birlashish dasturlaridan foydalanishning maksimal ko‘rsatkichi atigi 29 foizni tashkil etadi (13 mamlakatda). 21 ta mamlakatda migrant qaramog‘idagi ota-onalar hamda bobo-buvilarni oilalarni birlashtirish dasturlaridan foydalanishlarida cheklovlar mavjud bo‘lib, faqatgina istisno holatlarida bunga ruxsat beriladi.

Shu o‘rinda yana bir muhim savolga javob berib o‘tsak: ayollar va oilalarning globallashtirish davridagi migratsiyasiga qayday omillar sabab bo‘lmoqda? Bunga bir qancha omillar ta’sir qiladi. Avvalo, shuni ta’kidlash lozimki, o‘z yashash joyini o‘zgartirish va boshqa muhitda yashash qarori oson qabul qilinadigan qaror emas. Faqatgina insonda ulkan maqsadlar, asosli motivlar bo‘lgandagina, u o‘z oilasini, o‘zi tegishli bo‘lgan jamiyatni tark etishga, mutlaqo yangi ijtimoiy, madaniy, axloqiy, diniy ideallar hukmron bo‘lgan ijtimoiy muhitga adaptatsiya qilishga qaror qila oladi. Bunda migratsion jarayon uchun mavjud sabablar va migratsiya uchun imkoniyatlar hisobga olinadi. Oilaning bir a’zosini boshqa mamlakatga ko‘chirish qarori ko‘pincha kollektiv xarakterga ega bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, migrantning faqat o‘zining istagi ko‘chish uchun yetarli emas. Bu, ayniqsa, ayollar migratsiyasida yorqinroq namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda ayol migrantlar sonining ortishi “omon qolishning feminizatsiyasi” fenomenini bilan bog‘liq. Ya’ni bugungi kunda oilalar, jamoalar yoki davlatlar ayollarning iqtisodiy faolligi, ishlab chiqarish jarayonidagi ishtiroki, jumladan, mehnat migranti sifatida chet elga chiqib, daromad keltirishiga ko‘proq bog‘liq bo‘lib bormoqda. Natijada bu holat ichki va tashqi migratsiya jarayonlarida ayollar ulushining ortishiga olib keladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlardan migrant ayollarning rivojlangan mamlakatlarga ko‘chishi ushbu mamlakatlarda oilaviy-maishiy xizmat, parvarishlash bilan bog‘liq sohada ehtiyojning oshishi tendensiyasi bilan ham bog‘liq. Migrant ayollar jismoniy jihatdan kamroq kuch talab qilinadigan qariyalar va bolalar parvarishi, uy ishlarida ko‘makchilik-oqsochlik bilan shug‘ullanishadi. Iqtisodiy jihatdan farovonroq bo‘lgan mamlakatlarda ayollarning bandligi yuqori ekanligi, xizmatkor yollash uchun moliyaviy imkoniyat yetarli ekanligi, uy ishlariga kam haq uchun ishlashga rozi migrant ayollarni jalb qilish imkoniyati mavjudligi bunga asosiy sabablardan hisoblanadi. Lekin, odatda, bunday ishlarda kam haq to‘lanadi, yetarli darajada ijtimoiy himoya ta’minlanmaydi, ish rejimiga,

shaxsiy hayot chegarasiga amal qilinmaydi. Biroq migrant ayol olayotgan o'z miqdordagi pul o'z mamlakatida qolgan qaramog'idagi shaxslarning ta'lim, sog'liqni saqlash, oziq-ovqatga bo'lgan birlamchi ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini bergani uchun ushbu sharoitga rozi bo'ladi.

Ayollar migratsiyasining sabablaridan yana biri oila qurish hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, turmush qurish maqsadida migratsiya qilish yildan yilga oshib bormoqda¹⁰. Mazkur holat turli shaxsiy, oilaviy yoki ijtimoiy intilishlar, ehtiyojlar va maqsadlar bilan bog'liq. Ayniqsa, ayollarning nikohlanish maqsadida o'z yashash joylarini o'zgartirishlari Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi uchun xarakterlidir. Mintaqadagi iqtisodiy jihatdan rivojlanmagan Laos, Myanma yoki Veytnam kabi mamlakatlardan xotin-qizlarning iqtisodiy rivojlangan Janubiy Koreya, Singapur yoki Tayvan hududiga o'z mamlakatida rafiqqa topish uchun past iqtisodiy va ijtimoiy nufuzga ega, lekin migrant ayollar uchun yuqori ijtimoiy-iqtisodiy mavqe egasi hisoblanuvchi erkaklar bilan turmush qurish maqsadida ko'chishi ko'p kuzatiladi¹¹. Mazkur tendensiya faqatgina Janubiy-Sharqiy Osiyo uchun emas, balki boshqa mintaqalarda ham uchraydi. Masalan, birgina 2019-yilda 1550 nafar o'zbekistonlik qiz Turkiya fuqarolariga turmushga chiqqanligi¹² mazkur tendensiya O'zbekistonda ham kuzatilayotganini ko'rsatadi. Boshqa tomondan, oila qurish maqsadida ayollar faqatgina tashqi emas, balki ichki migratsiya jarayonida ham ishtirok etishadi. Bu, ayniqsa, ayollar o'z erlarining uylarida yashashlari odat tusiga kirgan Markaziy, Janubiy, Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ko'p kuzatiladi. Ayollar faqatgina bunday nikohdan iqtisodiy manfaat ko'zlashmaydi. Ba'zida yaxshi oilaga kelin bo'lish, sevgi, o'qish va karyerani davom ettirish kabi omillar ham "migrant kelinlar" sonining ortishiga xizmat qiladi.

Ayollar migratsiyasi ulushining ortishida mavjud gender stereotiplar, gender kamsituvchi ijtimoiy normalarning mavjudligi ham ta'sir qilishi mumkin. Davlat muassasalarida ayollarga nisbatan kamsitish holatlarini baholovchi ijtimoiy institutlar va gender indeksi ma'lumotlariga ko'ra, gender tengsizlik ayollar migratsiyasiga ham turtki beruvchi, ham to'siq bo'luvchi omil hisoblanadi¹³. Bir tomondan, o'z mamlakatida

Ayollar migratsiyasi ulushining ortishida mavjud gender stereotiplar, gender kamsituvchi ijtimoiy normalarning mavjudligi ham ta'sir qilishi mumkin. Davlat muassasalarida ayollarga nisbatan kamsitish holatlarini baholovchi ijtimoiy institutlar va gender indeksi ma'lumotlariga ko'ra, gender tengsizlik ayollar migratsiyasiga ham turtki beruvchi, ham to'siq bo'luvchi omil hisoblanadi.

¹⁰ OECD. "Chapter 3: A Portrait of Family Migration in OECD Countries." In International Migration Outlook 2017, Paris: OECD, 2017. pp. 107–166.

¹¹ Chung C., Kim K., Piper N. Marriage migration in Southeast and East Asia revisited through a migration-development nexus lens //Critical Asian Studies. – 2016. – T. 48. – №. 4. – C. 463–472.

¹² <https://daryo.uz/2020/02/28/turkiyaga-2019-yilda-1500-dan-ortiq-ozbekistonlik-kelin-turmushga-chiqdi/>

¹³ Ferrant G., Tuccio M. How do female migration and gender discrimination in social institutions mutually influence each other?. OECD Development Centre Working Paper No. 326. Paris: OECD. – 2015.

***Jamiyatda
migrantlar soni
ortib borgani
sari an'anaviy
oiladagi ota-ona va
farzand o'rtasidagi
an'anaviy axloqiy
munosabatlardan,
oilaviy
qadriyatlardan
uzoqlashgan
avlod shakllanadi.
Oilaning eng
asosiy ijtimoiy
vazifalaridan
biri jamiyatning
yuksak ma'naviyatli
avlodini tarbiyalash
hisoblanar ekan,
migratsiya sababli
parokanda bo'lgan
oila o'zining bu
vazifasini bajarishi
mushkullashib
boradi. Bu
esa bizning
jamiyatimizning
axloqiy muhiti,
axloqiy qadriyatlar
tizimining
barqarorligiga
salbiy ta'sir etadi.***

kamsitishlarga duchor bo'lgan ayollar chet elga ko'chib ketishni va davlat muassasalarida gender kamsitish darajasi o'z mamlakatiga qaraganda pastroq bo'lgan joylarda yashashni xohlashlari mumkin. Boshqa tomondan, donor mamlakatlardagi gender diskriminatsiyasi, agar ayollar murakkab oilaviy majburiyatlarni bajarishga majbur bo'lsa, resurslar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniyati cheklangan bo'lsa hamda o'z huquqlarini himoya qilishda zaif bo'lsa, ularning migratsiyasiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Shuningdek, yuqorida tilga olingan oilalarni birlashtirish tendensiyasi ham migrant ayollar sonining ortishiga xizmat qiladi. Aksariyat holatlarda migrant oilalarni birlashtirish jarayonida ayollar turmush o'rtoq sifatida ishtirok etishadi.

Globalashuv davrida ayollar migratsiyasining oiladagi ijtimoiy muhitga bevosita ta'siri har bir migrant o'z oilasi bilan doimiy aloqada bo'lish imkoniyati bilan izohlanadi. Jamiyatning million a'zosi, ayniqsa, oila institutining muhim bo'g'ini bo'lgan ayollar migrant sifatida boshqa davlatda, boshqa ijtimoiy-axloqiy muhitda yashar ekan, demak, ularning ortida qolgan million oilaning axloqiy muhitiga migratsiya bevosita, jamiyatning qolgan oilalari, a'zolari hayotiga esa bilvosita ta'sir etadi. Bunda zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlari katta rol o'ynaydi. Migrantlarning soni qanchalik ko'paysa, migratsiyaning emigrant jamiyat etosferasiga ta'siri shunchalik ortib boradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zbek xalqida azal-azaldan oila qadriyat sifatida jamiyat axloqiy qadriyatlar tizimining markaziy bo'g'inini tashkil etadi. Unga nisbatan munosabat o'zgarishi, oilaning mental axloqiy mazmunining transformatsiyasi hamda oldingidek qadrlanmay qolishi butun jamiyatimiz uchun axloqiy qadriyatlar tizimining o'zgarishiga, hatto tanazzuliga olib kelishi mumkin. Jamiyatda migrantlar soni ortib borgani sari an'anaviy oiladagi ota-ona va farzand o'rtasidagi an'anaviy axloqiy munosabatlardan, oilaviy qadriyatlardan uzoqlashgan avlod shakllanadi. Oilaning eng asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri jamiyatning yuksak ma'naviyatli avlodini tarbiyalash hisoblanar ekan, migratsiya sababli parokanda bo'lgan oila o'zining bu vazifasini bajarishi mushkullashib boradi. Bu esa bizning jamiyatimizning axloqiy muhiti, axloqiy qadriyatlar tizimining barqarorligiga salbiy ta'sir etadi.

Migratsiya, jumladan, ayollar migratsiyasi tufayli ota-onaning farzandlari balog'atga yetguniga qadar ular bilan birgalikda yashamasligi oilaning birligiga, hamjihatligiga, inoqligiga salbiy ta'sir etishi mumkin. UNICEFning bolalarni himoya qilish bo'yicha mutaxassisi Maziyar Taleshining fikriga ko'ra, "ota-onalarning o'z farzandlari yonida jismoniy ravishda bo'lishlari bolalar bilan yaqin rishtalarni saqlashning asosiy

omilidir. Ularning uzoq vaqt davomida farzandlaridan yiroqda qolishi migratsiya jarayoni ta'sirida bo'lgan bolalarga emotsional zarar yetkazishi va ularning psixologik holatiga ta'sir qilishi mumkin". Dono xalqimizda "mehr ko'zda" degan iboraning mavjudligi aynan shu fikrni yana bir bora tasdiqlaydi. Ya'ni ota-onaning biri yoki har ikkisi farzandlardan uzoqda yashagani tufayli farzandlar bemehr, e'tiborsiz bo'lib qolishlari xavfi mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. IOM (International Organization for Migration). 2011. *Glossary on Migration*. [2nd Ed]. Geneva: IOM.
2. *World Migration Report 2020*. (https://publications.iom.int/system/files/pdf/final-wmr_2020-ru.pdf). International Organization for Migration. p. 22.
3. *Прогресс женщин мира в 2019–2020 годах. Семьи в меняющемся мире. ООН-женщины. США, – Нью-Йорк, 2019. – С. 204.* // <https://www.unwomen.org/sites/default/files/Headquarters/Attachments/Sections/Library/Publications/2019/Progress-of-the-worlds-women-2019-2020-ru.pdf>
4. Hofmann E. and G.Chi. *Perspectives: Bride kidnapping haunts rural Kyrgyzstan, causing young women to flee*. Eurasianet, 2021, 8 June. Available at <https://eurasianet.org/perspectives-bride-kidnapping-haunts-rural-kyrgyzstancausing-young-women-to-flee>.
5. Lemon E. *Dependent on remittances, Tajikistan's long-term prospects for economic growth and poverty reduction remain dim*. Migration Policy Institute, 2019 14 November. Available at www.migrationpolicy.org/article/dependent-remittances-tajikistan-prospects-dim-economic-growth
6. UN General Assembly 1990, *International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of Their Families*. A/RES/45/158. United Nations Treaty Series Vol. 2220. – P. 3.
7. UN CEDAW 2008, *General Recommendation No. 26 on Women Migrant Workers*. CEDAW/C/2009/WP.1/R. n. 26(l).
8. UNHCR (UN Refugee Agency). *Global Trends: Forced Displacement in 2017*. Geneva: UNHCR.
9. CIDOB (Barcelona Centre for International Affairs) and the MPG (Migration Policy Group). 2015. "Migrant Integration Policy Index (MIPEX)." Accessed 26 March 2019. <http://www.mipex.eu/>.
10. OECD. "Chapter 3: A Portrait of Family Migration in OECD Countries." In *International Migration Outlook 2017*, Paris: OECD, 2017. pp. 107–166.
11. Chung C., Kim K., Piper N. *Marriage migration in Southeast and East Asia revisited through a migration-development nexus lens* // *Critical Asian Studies*. – 2016. – T. 48. – №. 4. pp. 463–472.
12. <https://daryo.uz/2020/02/28/turkiyaga-2019-yilda-1500-dan-ortiq-ozbekistonlik-kelin-turmushga-chiqdi/>
13. Ferrant G., Tuccio M. *How do female migration and gender discrimination in social institutions mutually influence each other?* OECD Development Centre Working Paper No. 326. Paris: OECD. – 2015.